

MISR HIKOYA JANRI ASOSCHISI-MUSTAFO LUTFIY AL-MANFALUTIY

Jonqobilova Zebiniso Kamoliddin Qizi

Magistrant

Samarqand davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqola Misr adabiyotiga shakllangan yangi, hikoya janri asoschilaridan biri bo'lmish Mustafa Lutfiy al-Manfalutiy ijodining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib beradi. Shuningdek unda , al-Manfalutiy tomonidan yaratilgan hikoya janrida yaratilgan ilk asarlar mazmuni haqida qisqacha fikr- mulohazalar bildiriladi.*

Аннотация: *Данная статья проливает свет на уникальные особенности творчества Мустафы Лутфи аль-Манфалутути, одного из основоположников нового повествовательного жанра, сформировавшегося в египетской литературе. В нем также содержатся краткие комментарии о содержании первых произведений, созданных аль-Манфалутути в повествовательном жанре.*

Annotation: *This article sheds light on the unique features of the work of Mustafa Lutfi al-Manfaluti, one of the founders of the new narrative genre that has formed in Egyptian literature. It also contains brief comments about the content of the first works created by al-Manfaluti in the narrative genre.*

**“Yolg'on bo'lsa ham umidlar bilan tirikmiz,
Yolg'on bo'lsa ham umidlar bilan xursandmiz”**

Mustafo Lutfiy al-Manfalutiy

Misrda zamonaviy hikoya janri asoschilaridan biri, adib, Mustafa al-Manfalutiy yangi adabiy uslubning yaratuvchisi hisoblanadi. Shuningdek, u ocherk janriga murojaat qilgan birinchi Misrlilik yozuvchi ham edi. 1876-yilda dunyo yuzini ko'rgan taniqli yozuvchi 1924-yilga qadar yashab, ijod qiladi. Azhari sharifda tahsil olib, ustozlari Muhammad Abduhning islohotchilik g'oyalari ostida dunyoqarashini shakllantiradi. Al-Manfalutiy mumtoz arab adabiyoti vakillari Ibn ar-Rumiy, Abul A'la al-Maariy va Abu Tammom kabi shoirlarning ijodini zo'r ishtiyoq bilan o'rganadi. She'riyatga qiziqishi baland adib, lirik va siyosiy she'rlar yozishga ham vaqt ajratib turar edi. Ammo uning ijodining salmoqli qismini nasriy asarlar tashkil etadi. Uni mashurlikka yetaklagan ilk asari “An-Nazarot” (Ko'rinishlar) nomi bilan nashrdan chiqqan publisistik kitobi bo'ldi. Bu asari bilan adib o'z zamonasining voqelikka asoslangan manzaralarini tanqidiy uslubda yoritib bera oldi. Bundan keyingi asarlaridan “Al-Manfalutiy xrestomatiyasi” nomli kitobi ko'p yillar davomida oliy o'quv yurtlarida o'quv qo'llanma sifatida foydalanilgan. Bu kitob o'zida arab mumtoz adabiyotining eng sara saylanmalarini jamlagan bo'lib, o'quvchilar sevib o'qiydigan adabiyotlar qatoridan joy oldi. O'sha davr nafasiga mos ravishda al-Manfalutiy ham Yevropa adabiyoti ruhiyati ta'sirida bir qancha hikoyalar yaratadi. Adabiyot sohasidagi ilk chiqishlari 1909-yilda “Al-Muayyad”

gazetasida kichik-kichik maqolalar chop etish bilan boshlangan. Bu maqolalar keyinchalik uch qismdan tashkil topgan “An-Nazarot” (Ko’rinishlar) nomli to’plam holatiga keltirilgan. “1912 -yilda “Al-Manfalutiyning saylanmalari” nomi bilan bir qator ishqiy mavzudagi she’riy to’plamlar kitobi nashrdan chiqadi. 1915-yilda esa “Darslar” nomi ostida hikoyalar to’plami omma qo’liga yetib bordi ”²⁰. “Ko’rinishlar” kitobi ijtimoiy, siyosiy va diniy masalalarga bag’ishlangan asar bo’lib “Al-Muayyad” va boshqa gazetalarda bosilgan maqolalar to’plamidan iborat. “Darslar” kitobi esa to’qqizta fojiali hikoyani o’z ichiga olgan kitob bo’lib, ulardan beshtasi tarjima asosida shakllangan “shahidlar”, “xotira”, “jazo”, “qurbonli va qasos” va Amerikalik yozuvchining “Qabrlar faryodi” nomli hikoyalar adib ijodida qaytadan dunyoga keladi. Al-Manfalutiy bu hikoyalarga “Al-uqob” nomini berib, ularning har birida millat dardi bo’lib kelayotgan qashshoqlik, siyosiy zulm va boshqa muammolarni yoritib bergan.

Bundan tashqari, Yevropa adabiyoti ishqibozi bo’lgan adib, xorijiy tillarni bilmaganligi sababli g’arb adabiyoti namunalarini arab tilidagi tarjimalaridagina o’qir, asarlar syujetini diqqat bilan kuzatar edi. Alfons Karronning "Lipa daraxti osti" a" nomli asari, Edmon Rostanning “Sirano deberjerak” asari, Fransua Kopenning “Toj” asari va Bergarden de Sen Pienning “Pol va Verjina” asarlarini alohida o’rgandi va aynan mana shu asarlar ustida ish olib bordi. Dastlab o’qigan adabiyotlaridagi voqea hodisalarni arab kitobxonlari ruhiyatiga yaqinlashtirib o’z tilida erkin bayon eta boshladi. Keyin asar qahramonlari ismini arabiy ismlarga alishtirdi, obrazlardagi axloqiy jihatlarni Misr madaniyatiga moslashtirdi, syujetlarni esa asl holda saqlab qolgan holda yangi ko’rinishdagi hikoyalarni yaratdi. Bu hikoyalar yaratilish jihatidan fransuz adiblarining asarlari nusxasidan ko’chirilgan bo’lsada, uslubiyat jihatidan xalq sevgan an’anaviy sa’j uslubidan foydalanilgan holda yozilgan. Mana shu tarzda yaratilgan asarlardan al-Manfalutiyni mashhurlikka olib chiqqan “Abarat” (Ko’z yoshlari) hikoyalar to’plami dunyo yuzini ko’rdi. Asar o’ta og’ir ma’yuslik ruhiyati ostida yozilgan bo’lib, o’quvchi bir g’amgin hikoyadan ikkinchisiga o’tar ekan yanada qayg’uliroq va baxtsizroq taqdirlar hikoyasini o’qib iztirobga tushadi.

Bu to’plamdagi “Yetim” hikoyasida asosan ikki sevishgan oshiqning hayoti hikoya qilinadi. Ular kelib chiqish jihatidan turli ijtimoiy tabaqalarga mansub ekanligi tufayli orzu-umidlari barbod bo’lib, sevgisiga yetisha olmaganliklari sharqona odob-axloqiy nizomlar doirasida tasvirlab beriladi. “Parda” hikoyasida esa Manfalutiy o’z xalqini g’arb an’analari ergashmaslikka da’vat etib, musulmonlarni o’z yerlarini mahkam tutib, o’z dinlarini saqlab qolishga chaqiradi. Yana boshqa birini olsak, “Margaretning xotiralari” nomli hikoyasi syujetlari orqali yozuvchi kitobxon tasavvurida Margaret qiyofasida dunyoning qashshoq ekanligi tasvirini gavdalantiradi. Hikoyalarning har biri so’nggida fojiali yakun sabab ko’zlardan va ko’ngillardan qayg’uli ko’z yoshlar to’kiladi.

Al-Manfalutiy adabiyotining eng ko’zga ko’ringan jihati shundaki, unda qashshoqlik, baxtsizlik, musibat, dard qa’ridan otilib chiquvchi ajoyib obrazlar, badbaxt insonlar holi

²⁰ “Arab adabiyoti enslopediyasi” Julie Meisami va Pol Starkey. London.: Routledge. 1998.

tasvirlangan. Uning asarlarini o'qir ekansiz, yozuvchining tabiatida, ichki hissiyotlarida qanday xunrezlik yuz berganki, bunchalar g'am-alamlarga to'la dunyoni tasvirlashga mahkam bel bog'lagan degan fikrga kelasiz.

Yozuvchilar al-Manfalutiyning adabiy yig'isi to'g'risida turli xil fikr bildirganlar. Ularning ba'zisi, adabiy yig'i ruhiyati o'sha davrning eng yuqori nuqtasiga yetgan modasi edi deyishsa, boshqa biri, buni Sharq davlati, uning ozodlikdan mahrum bo'lishi va zulmlardan shikoyat qilishning badiiy ko'rinishi edi deya ta'riflaydi. U adabiyotda til bayonining ulug'vorligi va ifoda teranligi bilan boshqa ijodkorlardan ajralib turardi. O'ziga xos uslubga ega, o'zgacha dunyoqarash sohibi voqea-hodisalarning eng nozik qirralarini o'zgacha yo'sinda tasvirlab, o'quvchini mazkur holatni his qilishga, asar qahramonlarining o'rnida o'zni tasavvur qildiradi olishga yetarlik mohirona so'z ustasi edi.

Yozuvchi yashagan yillarda mustamlakachilik va uning qo'lida ko'p azob chekkan millatning qashshoqligi o'z nafsining qashshoqligiga singib ketgan edi. Shuning uchun ham, u o'z asarlarida yig'lab nola qilib, bu baxtsizlikni chaluvchi nayga aylanadi. Adib hikoyalarida turli xi kompozitsiyalardan mahurat bilan foydalanishi uning qalam tebratishda naqadar iqtidorli ekanini ko'rsatadi. Hikoyalar asosan muallif tilidan hikoya qilinib, rang-barang qurilishga ega. Ba'zida hikoyaning bo'lajak voqealari yechimi muallif nomidan asar boshidanoq aytib o'tiladi. Adibning "Yetim" hamda "Jarlik" nomli hikoyalarida kompozitsiyalar xuddi shunday uslubda bayon etilgan. Hikoyalar kompozitsion jihatdan zamon va makon tushunchalari doirasida cheklanib qolmaydi. Muallif voqea-hodisalarni, qahramonlarning ruhiy iztiroblarini, ichki kechinmalarni tavsiflashda lirik chekinishlardan, ichki monolog va diologlardan foydalanib o'zgacha uslubda tasvirlab beradi. Bu uslub Misr adabiyoti uchun hali yangilik edi. Al-Manfalutiy ijodida adabiyot sohasining ma'rifatparvarlik ruhi ufurib turadi.

Al-Manfalutiy hikoyalarida inson obrazi doim birinchi o'rinni egallagan. Inson ichki kechinmalari, nozik hissiyotlari bilan yaqindan sirlashadi. Zamon og'riqlari aynan mana shu insonlarning qalblarida o'rnashib, makon qurganini, hayotning barcha achchiqlarini bechora miskin insonlar ko'proq tatib ko'rganini hikoya qilgan yozuvchi alamzadalarning hayotlarini yoritib berish uchun adabiyotni qurol qiladi. Adabiy tasvirlar endi haqiqiylikka asoslanar ekan, yozuvchi endi haqiqatlarni baralla oshkor etadi. Shu tariqa siyosiy arboblarning ishlarini fosh qiluvchi she'rlari uchun olti oylik qamoq jasosi bilan jazolandi.

Uning asarlarida islohotga yo'naltiruvchi xarakterdagi qator ijtimoiy mavzular bo'lib, ular axloqni tuzatishga, ezgulikka intilishga, xayr-u ehson qilishga, sadoqatli bo'lishga, o'zlikni asrashga, miskinlarga nisbatan izzatli bo'lishga, zaiflarga rahm-shafqat ko'rsatishga, insonlarni bir-birlarini qo'llab-quvvatlashga da'vat etardi. Uning barcha qayg'usi xalq qayg'usiga bog'lanib ketganini yaqqol ko'rish mumkin. uning qayg'ulariga eng katta sababardan yana biri to'rt nafarfarzandining dog'i edi. U "Kichik dafn" sarlavhasi ostidagi ko'rinishda kichik farzandiga nola qilib shunday deydi "O'g'lim men sizni ko'mdim, sizdan oldin akalaringizni ham ko'mdim, men har kuni yangi mehmonlarni qabul qilaman va

o'tgan mehmonlar bilan xayrlashaman" ²¹. O'sha davr ijtimoiy tuzimi ostida kechgan xalq hayotining bir parchasi o'laroq adibning o'z hayot yo'lini ham yoritib berish mumkin. U ham oddiy xalq boshidan kechirayotgan dardlarni o'z jonida his qilgan, azoblar borasida ularga sherik bo'lgan shaxslardan biri sifatida el nomidan, zulmlar chekkan mazlumlar nomidan so'zlovchi yelga aylandi.

Yozuvchi g'am anduh, alamli iztiroblarni tasvirlashda mubolag'alardan ham keng foydalandi. O'z asarlari bilan o'quvchilar orasida hozirga qadar qayg'uli yozuvchi nomi bian mashhur bo'lib keladi. U romantizm yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beruvchi, inson ichki dunyosiga alohida chuqur yondoshuvchan asarlari bilan Misr adabiyoti sahnida o'chmas iz qoldirdi. Adib 1924-yil 25-iyulda vafot etdi. Ammo uning fikrlari, adabiy meroslari hamon tirik. U adabiyot namoyandasi sifatida, mohir yozuvchi sifatida kitobxonlar qalbida mudom hayot.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Mustafo Lutfiy Al-Manfalutiy nazariyalari va saboqlari" Al-Manfalutiy. Misr.: Nahdat nashriyoti. 782 b.
2. "Arab adabiyoti enslopediyasi" Julie Meisami va Pol Starkey. London.: Routledge. 1998.
3. "Арабская романтическая проза". Предисловие А. А. Долина.
1. goodreads.com
2. britannica.com
3. amazon.com
4. Noor-book.com...

²¹ "Al-Manfalutiy qayg'uli yozuvchi" Boabdulla 11.01.2017. Diplom bo'yicha television taqdimot .